



O'ZBEK TILI VA INGLIZ TILIDAGI IDIOMALARNING QIYOSIY TAHLILI

Sharipboyeva Ro'za Jasurbek qizi

Urganch davlat universiteti, 3-bosqich talabasi

Kalit so'zlar: idioma, frazeologizm, madaniyat, ingliz-o'zbek tarjimasi, semantika, tilda ifoda, tarjima muammolari,

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida mavjud bo'lgan idiomalarning leksik-semantik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ikki tildagi idiomalarning shakl va mazmun jihatidan o'xshashliklari hamda farqlari taqqoslab ko'rsatiladi. Qolaversa, tarjima jarayonidagi madaniy muammolar va noto'g'ri talqinlar haqida ham so'z yuritiladi. Maqola filologiya yo'nalishida o'qiydigan talabalar, tilshunoslar, tarjimonlar va chet tilini o'rganuvchilari uchun foydalidir.

Kirish: Har bir til o'z xalqining madaniyati, mentaliteti va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Ayniqsa, idiomatik birliklar (ya'ni idiomalar) tilda xalqona fikrlash uslubining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Har bir til o'ziga xos idiomalarga ega bo'lib, ular orqali insonlar o'z fikrlarini obrazli, ta'sirli va qisqa shaklda ifoda etadilar. Qolaversa, idiomalar xalqaro donishmandlik, kinoya, ijtimoiy munosabat va hissiyotlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tili va o'zbek tilida ham ko'plab o'ziga xos va sarmazmun idiomatik ifodalar mavjud. Ular bevosita tarjima qilinmaydigan, ramziy ma'noga ega iboralar bo'lib, til o'rganuvchilari uchun muayyan qiyinchilik tug'diradi. Shunga qaramay, ularning qiyosiy o'rganilishi til o'rganuvchilariga nafaqat lingvistik bilim, balki madaniy tafakkurga chuqurroq kirib boorish imkonini beradi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalar xususiyatlari o'rganilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.



Asosiy qism: Idioma (ingliz tilida idiom) – bu bir nechta soʻzdan tashkil topgan, lekin umumiy maʼnosi alohida soʻzlarning lugʻaviy maʼnosidan butunlay farqlanuvchi iboradir. Ularni soʻzma-soʻz tarjima qilish, aksariyat hollarda mantiqsiz yoki kulgili natijaga olib keladi. Idiomalarning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

- Tarkibiy mustahkamlik-iborani oʻzgarishsiz ishlatish kerak boʻladi.
- Koʻchma maʼno- soʻzlar asl maʼnosidan farqli tarzda oʻzgaradi.
- Madaniy kontekstga bogʻliqlik- idioma mazmunini tushunish uchun xalq mentaliteti va tarixiy qadriyatlarini bilish muhim

Ingliz va oʻzbek tillaridagi oʻxshash idiomalar. Ayrim frazeologik birliklar turli tillarda mazmunan yoki obrazli jihatdan oʻxshash boʻlishi mumkin. Bu holat universal insoniy tajriba, hayotiy vaziyatlar va umumiy his-tuygʻular bilan bogʻliq. Masalan:

A piece of cake	Hamirdan qil sug'urgandek, juda oson
Kill two birds with one stone	bir o'q bilan ikki quyonni urmoq
Spill the beans	gullab qo'yish, aytib yuborish.
On cloud nine	yettinchi osmonda, juda xursand
Break the ice	gap tashlamoq, suhbatni boshlamoq
Like two peas in a pod	ikki tomchi suvday, juda o'xshash

Bu inglizcha iboralarning oʻzbekcha ekvivalenti hisoblanadi. Bu semantik oʻxshashlik mavjud iboralar umumiy madaniyatlararo aloqa uchun muhim til birliklari sanaladi.

Oʻzbek va ingliz tillaridagi idiomalarning shakliy farqlari.

Farq qiluvchi frazeologik iboralar esa koʻpincha milliy madaniyat, hayotiy tajriba, diniy eʼtiqod va hayotiy muhitning oʻziga xos jihatlaridan kelib chiqadi. Masalan, ingliz tilidagi keng tarqalgan metaforalar, asosan, gʻarbona kontekstga asoslangan boʻlsa, oʻzbek tilidagi idiomalar sharqona maʼnaviyat, xalqlarning urf-odatlar, dehqonchilik, nasihat, diniy obrazlarga boy. Misol uchun:



1. Bite the bullet- so'zma-so'z tarjimasi: o'qni tishlab olish

O'zbekcha ekvivalenti: tishini tishiga qo'yib chidash

2. Cry over spilled milk- tarjimasi: to'kilgan sut ustida yig'lamoq

O'zbekcha ekvivalenti: o'tgan ishga afsuslanmoq.

3. When pigs fly- tarjimasi: cho'chqalar uchganda

O'zbekcha ekvivalenti: tuyani dumi yerga tekkanda

4. Hit the sack- tarjimasi: xaltani urmoq

O'zbekcha ekvivalenti: yostiqni boshga qo'ymoq, uxlamok

5. Cost arm and leg- tarjimasi: qimmat, ot bilan tuyani narxida

Bu farqli idiomalardan ko'rinib turibdiki, ulardagi obrazlar va metaforalar har bir xalqning mentalitetiga bevosita bog'liq. Ingliz idiomalari ko'pincha so'zlar o'rtasidagi munosabatlar va zamonaviy voqealar asosida paydo bo'lgan. Ular metafora va allegoriyalarga boy bo'lib, global madaniyat ta'siri ostida shakllangan

Idiomalar tarjima jarayonida katta e'tibor talab qiladi, chunki ular tilga xos madaniy ma'no va tarixiy tajribani o'z ichiga oladi. Masalan, o'zbek tilidagi "oyog'i osmunda yurmoq" idiomasi ingliz tilida "walking on the air" (osmunda yurish) bilan tarjima qilinishi mumkin, ammo har ikkisi ham baxtiyorlik ma'nosini beradi. Ammo har doim ham idiomalar bir-biriga mos kelavermaydi. Shu bois, til o'rganuvchilar va tarjimonlar idiomalarni o'z madaniy kontekstida o'rganishlari kerak. Idiomalarni to'g'ri tushunish va qo'llash tilning tabiiyligini ta'minlaydi va muloqotdagi tushunmovchiliklarni kamaytiradi.

Xulosa

O'zbek va ingliz tillaridagi idiomalar til va madaniyatning boyligini namoyon etuvchi o'ziga xos frazeologik birliklardir. Har ikki til idiomalari o'z xalqlarining tarixiy tajribasi, ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Ularning o'ziga xos metafora va ramziy ifodalari mavjud bo'lib, til o'rganishda va tarjimada alohida e'tibor talab qiladi.

Idiomalarni o'rganish tilshunoslik, tarjimonlik va madaniyatshunoslikda muhim o'rin tutadi, chunki ular xalqning ruhiyatini va tafakkurini aks ettiradi. Shuningdek, idiomalarni yaxshi bilish til o'rganuvchi uchun tilni yanada tabiiy va



samimiy qo'llash imkonini yaratadi. Shu sababli, idiomalarni to'liq tushunish va ularni kontekstga mos ravishda qo'llash har doim yuqori til madaniyatining ko'rsatkichidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova, M. (2018). Ingliz va o'zbek frazeologik birliklarining solishtirma tahlili. Tilshunoslik jurnali
2. Nazarov, S. (2011). O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent. O'qituvchi
3. Nida, E.A, &Taber, C.R. (1969). The theory and Practice of Pranslation. Leiden. Brill
4. Rakhimov, J. (2014) O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning madaniy qirralari. Toshkent
5. Yusupov, B. (2019). *Til va madaniyat: Idiomalar orqali. Toshkent. Akademnashr*